

O'ZBEKISTONDA CHET TILI O'QITISH METODIKASINING ILMIY NAZARIY HOLATI

Norqulov Bekzod Xurramovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2 kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining an'anaviy va eksperimental guruhlarida ingliz tilini adabiyotlardan foydalangan holda, xususan, ingliz adabiyotidan foydalangan holda ijodiy metodlar asosida o'qitishga bag'ishlangan. Ushbu mavzuni tanlaganim sababi shundaki, ingliz tilini o'qitishning til ko'nikmalarini lingvistik jihatlar bilan bog'liq holda rivojlantirishga qaratilgan usullariga qiziqaman.

Annotation. This article is dedicated to the study of teaching english on the of base creative methods using literature particularly using English literature in traditional and experimental groups of Uzbek state world languages university. The reason of choosing this theme is that I am interested in methods of teaching English focusing on the development of language skills in connection with linguistic aspects.

Аннотация. Данная статья посвящена обучению английскому языку с использованием литературы, особенно английской литературы, на основе творческих методов в традиционных и экспериментальных группах Узбекского государственного университета мировых языков. Причина, по которой я выбрал эту тему, заключается в том, что меня интересуют способы преподавания английского языка, направленные на развитие языковых навыков в отношении лингвистических аспектов.

Kalit so'zlar: Estetik tarbiya, lingvodidaktika, lingvometodika, pedagogika, psixologiya, eksperimental, didaktik, xronometr.

Ключевые слова: Эстетическое воспитание, лингводидактика, лингвометодология, педагогика, психология, эксперимент, дидактика, секундомер.

Key words: Aesthetic education, linguodidactics, linguomethodology, pedagogy, psychology, experimental, didactic, stopwatch.

Maktab yoshlarini har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish, ularni estetik tarbiyalash hamda xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilishga tayyorlash lozim. Bularni amalga oshirishda chet tili ham o'z hissasini qo'shadi. Chet tili o'qitish metodikasi lingvodidaktikaning ajralmas qismidir. Lingvometodika ona tili, rus tili va chet tillari o'qitish metodikasini o'z ichiga oladi. Chet tillarini o'qitish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

□ Bo'lajak mutaxassislarda chet tili o'qitish metodikasidan keng nazariy zamin yaratish;

□ Talabalarda ta'limning tamoyil, metod, vositalarini samarali ijodiy qo'llash, malaka-ko'nikmalarini hosil qilish;

Chet tillari, xususan ingliz tili o'qitish metodikasi kursining mavzusi 3 guruxga bo'linadi:

□ Ingliz tili o'qitish metodikasining nazariy asoslari;

□ Ingliz tili nutq faoliyatining asosiy turlari a) til materialini o'rgatish, b) nutq faoliyati turlarini o'rgatish;

□ Ingliz tili o'qitish jarayonini tashkil qilish.

Sobiq Ittifoqda chet tilini o'qitish metodikasining asoschisi akademik J.B. Shcherba edi. Bu sohada I. V. Raxmanov, A. A. Mirolyubov, V. S. Setlin, V. D. Arakin, Z. M. Svetkova, S. F. Shatilov, N. I. Gez, G. V. Rogova, I.J.Bim va boshqalar mehnat qildilar. Metodikaning fan sifatida shakllanishi hamda rivojlanishida pedagogika, psixologiya, tilshunoslik kabi fanlar bilan aloqasi muhim bo'lmoqda. Chet tili o'qitish metodikasi barcha fanlar kabi shug'ullanish predmeti, ob'ekti, ilmiy-tadqiqot uslubi, metodik tushunchalari va metodologik asosiga ega.

Chet tilini o'qitish metodikasining nazariy asosi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

□ Hozirgi davr chet tili o'qitish metodikasi maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida metodikaning asosiy qismlarini yoritish va uning asosida o'quvchi, talabalarga ta'lim berish.

□ O'quvchi talabalarga chet tili o'rgatishning ilg'or metod va usullarini tanishtirish.

□ Hozirgi davr metodikasining tarkibiy qism, vositalarini yoritish.

□ O'qituvchilarning ilg'or tajribalarini o'rganish.

□ Seminar mashg'ulotlari orqali mutaxassislik uchun zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

□ Bo'lajak o'qituvchilarni maxsus ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish orqali o'z kasbi ustida mustaqil shug'ullanishga, ilmiy ishlarga tayyorlash.

Chet tili o'qitish metodikasi umumiy va xususiy metodikalarga bo'linadi:

Umumiy metodikaga A. A. Mirolyubov taxriri ostida chiqqan «Teoreticheskiye osnov obucheniya inostrannim yazikam v sredney shkole», N. I. Gez va boshqalarning «Metodika obucheniya inostrannim yazikam v sredney shkole», J. J. Jalolovning «Chet tili o'qitish metodika»larini kiritish mumkin. Ularda umumiy chet tilini o'qitish masalalari, o'qitish tamoyillari, metodlari, usullari, yo'llari, vositalari yoritilgan.

Xususiy metodika bitta chet tilini o'qitish metodikasi masalasi bilan shug'ullanadi. Bunga G. V. Rogovaning «Methods of teaching English», S. F. Shatilovning «Metodika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole», I. L. Binning «Teoriya i praktika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole», L. S. Andriyevskaya-Levensternning «Metodika prepodavaniya fransuzskogo yazika

v sredney shkole” qo‘llanmalari misol bo‘la oladi. Keyingi yillarda metodikaning tarixiy, eksperimental, qiyosiy va boshqa turlari yaratildi.

Ma'lumki ,tajriba va eksperimentlar o‘zaro farqlanadi .Tajriba asosida o‘qitish oylar, yillar mobaynida o‘tkazilsa, eksperiment biror yangi mavzu, metod, usul, mashq, ilmiy farazni qisqa muddatda sinaydi, tekshiradi.Test inglizcha so‘z bo‘lib, sinov, sinash, degan ma’nolarni bildiradi. Bu usul AQShda birinchi bor qo‘llanilgan. Testlar bilan shug‘ullanuvchilarni testologlar deyiladi. Testda hammaga bir xil sharoit yaratiladi, talab qo‘yiladi, faollashtiriladi.

Metodikada testning tekshirish, didaktik, psixologik va o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash kabi turlari mavjud.Xronometrlashda o‘quv jarayoni yozib boriladi. Yozib olingan o‘quv jarayoni tahlil qilinadi, o‘rganiladi, amalda foydalaniladi.Ossillografik tahlil qilishlan talaffuz ustida ishlaganda foydalaniladi.Chet tillar o‘qitish metodikasining uslubiy tushunchalari bor. Ular metodikaning tamoyil, usul, yo‘l vosita, o‘qitish tizimi, texnologiyasi, malaka va ko‘nikmasidan iborat. Bu metodik tushunchalar bir-birini to‘ldiradi. Ular metodikaning eng zarur, kerakli tushunchalaridir. Metodika bu tushunchalar orqali chet tili o‘qitishni ishlab chiqadi, ta’lim-tarbiya berishda ulardan foydalanadi. Har bir fan o‘z tamoyillarga ega. Shular qatorida metodika fanining ham tamoyillari bor.Tamoyil ta’lim-tarbiya berishda rioya qilinishi lozim bo‘lgan qonuniyatdir.Metodni o‘rgatish usullarining yig‘indisi va butun bir yunalish sifatida tushuniladi. Birinchisi, talaffuzni, leksikani o‘rgatish metodlari misol bulsa, ikkinchisiga, chet tilini o‘qitishda oldin qo‘llanilgan leksika-tarjima metodni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Metodikada usul, yullar ham mavjud bo‘lib, ular (usul, yo‘llar) yig‘indisi metodni tashkil qiladi. Metodik yo‘l, usul o‘qitishda qo‘llaniladigan kichik metodik ish faoliyatidir.